

JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 1, 2026 vol. 3

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**

Tashkent state
transport university



JOURNAL OF TRANSPORT

RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164

VOLUME 3, ISSUE 1

MARCH, 2026



jot.tstu.uz

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 3, ISSUE 1 MARCH, 2026

EDITOR-IN-CHIEF

SAID S. SHAUMAROV

Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University

Deputy Chief Editor

Miraziz M. Talipov

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University

The “**Journal of Transport**” established by Tashkent State Transport University (TSTU), is a prestigious scientific-technical and innovation-focused publication aimed at disseminating cutting-edge research and applied studies in the field of transport and related disciplines. Located at Temiryo‘lchilar Street, 1, office 465, Tashkent, Uzbekistan (100167), the journal operates as a dynamic platform for both national and international academic and professional communities. Submissions and inquiries can be directed to the editorial office via email at jot@tstu.uz.

The Journal of Transport showcases groundbreaking scientific and applied research conducted by transport-oriented universities, higher educational institutions, research centers, and institutes both within the Republic of Uzbekistan and globally. Recognized for its academic rigor, the journal is included in the prestigious list of scientific publications endorsed by the decree of the Presidium of the Higher Attestation Commission No. 353/3 dated April 6, 2024. This inclusion signifies its role as a vital repository for publishing primary scientific findings from doctoral dissertations, including Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) candidates in the technical and economic sciences.

Published quarterly, the journal provides a broad spectrum of high-quality research articles across diverse areas, including but not limited to:

- Economics of Transport
- Transport Process Organization and Logistics
- Rolling Stock and Train Traction
- Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields, including Technology
- Technosphere Safety
- Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications
- Technological Machinery and Equipment
- Geodesy and Geoinformatics
- Automotive Service
- Air Traffic Control and Aircraft Maintenance
- Traffic Organization
- Railway and Road Operations

The journal benefits from its official recognition under Certificate No. 1150 issued by the Information and Mass Communications Agency, functioning under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. With its E-ISSN 2181-2438, ISSN 3060-5164 the publication upholds international standards of quality and accessibility.

Articles are published in Uzbek, Russian, and English, ensuring a wide-reaching audience and fostering cross-cultural academic exchange. As a beacon of academic excellence, the "Journal of Transport" continues to serve as a vital conduit for knowledge dissemination, collaboration, and innovation in the transport sector and related fields.

A new stage in the integration of education, science, and industry

S.T. Norkulov

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article examines a new stage in the integration of education, science, and industry through the example of cooperation between Tashkent State Transport University and the Tashkent Metro State Unitary Enterprise. The study highlights mechanisms aimed at improving the quality of personnel training, implementing research results into industrial practice, promoting innovation, and preparing competitive specialists for the metro transport sector. Special attention is paid to systematic monitoring of educational processes, internships, joint research projects, and the initiative “Metro – Problem Days.”

Keywords: education-industry integration, metro transport, innovation activity, scientific research, personnel training, dual education, transport sector

Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida yangi bosqich

Norkulov S.T.

¹Toshkent davlat transport universiteti, Tashkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining zamonaviy bosqichi, xususan Toshkent metropoliteni DUK bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Hamkorlik doirasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va soha uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, 2026-yildan boshlab joriy etiladigan tizimli monitoring, amaliy stajirovkalar, qo‘shma ilmiy loyihalar va “Metro – muammo kunlari” tashabbusining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, metropoliten transporti, innovatsion faoliyat, ilmiy tadqiqot, kadrlar tayyorlash, dual ta’lim, transport sohasi

1. Kirish

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ilmiy salohiyatni oshirish va ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-iyuldagi PQ-313-son qarori ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlashga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir.

Transport va metropoliten sohasi zamonaviy texnologiyalar, yuqori malakali kadrlar hamda innovatsion yondashuvni talab qiladigan strategik yo‘nalish hisoblanadi. Shu bois universitet va ishlab chiqarish korxonasi o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi.

2026-yildan boshlab Toshkent davlat transport universiteti hamda “Toshkent metropoliteni” DUK o‘rtasida ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, metropoliten sohasi uchun zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish samaradorligini oshirish maqsadida universitetda sirtqi, kechki, masofaviy ta’lim shaklida tahsil olayotgan “Toshkent metropoliteni” DUK xodimlarining dars mashg‘ulotlariga belgilangan vaqtlarda qatnashishi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, yillik tasdiqlangan o‘quv grafiklari va shartnoma to‘lovlari bo‘yicha ma’lumotlar metropoliten rahbariyatiga tizimli va doimiy ravishda taqdim etib boriladi.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Professor-o‘qituvchilar ilmiy yo‘nalishi va kafedra ixtisosligidan kelib chiqib metropolitenning tegishli xizmatlari, depo va bo‘limlarida amaliy stajirovkalarga yo‘naltiriladi hamda Metropoliten kadrlarini tayyorlash ilmiy-innovatsion markazi bilan hamkorlikda o‘quv dasturlari, o‘quv rejaları va o‘quv-metodik komplekslar ishlab chiqarishga ko‘maklashiladi.



Metropolitan xodimlarining nazariy bilimlarini oshirish maqsadida xorijiy va mahalliy ta'lim tajribasiga ega professor-o'qituvchilar tomonidan har chorakda seminar, master-klass va treninglar tashkil etiladi, stajirovka yakunlariga ko'ra stajirovka obyektlarida aniqlangan muammolar tahlil qilinib ilmiy asoslangan takliflar kiritib boriladi, "Toshkent metropoliteni" DUKning amaliy ehtiyojlarini o'rganish asosida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar, magistrantlar va doktorantlarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash hamda ilmiy-innovatsion faoliyatni rejalashtirish bo'yicha 2026-yil uchun yo'l xaritasi ishlab chiqiladi.

Shuningdek, "Toshkent metropoliteni" DUK bilan hamkorlikda "Metro – muammo kunlari" tashkil etiladi, metropolitenida universitet talabalarining amaliyot dasturlari, stajirovka va ekskursiyalari tizimli ravishda yo'lga qo'yiladi. "Toshkent metropoliteni" DUK bilan hamkorlikda tashkil etilgan kafedra filialida o'quv jarayonlari belgilangan muddatlarda o'tkazilib, ularning monitoringi olib boriladi, metropoliten rahbariyati bilan kelishilgan holda real ishlab chiqarish muammolari asosida bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalari mavzulari bazasi shakllantiriladi, tasdiqlanadi va talabalar hamda ilmiy izlanuvchilarga taqsimlanadi.

Metropolitan kadrlarini tayyorlash ilmiy-innovatsion markazi bilan hamkorlikda "Elektropoyezd mashinisti", "Eskalator mashinisti" va boshqa o'quv kurslari uchun professor-o'qituvchilar fuqaroviy-huquqiy shartnomalar asosida jalb etiladi hamda ushbu kurslar uchun o'quv-metodik komplekslar ishlab chiqishda amaliy yordam ko'rsatiladi.

Universitetda metropoliten transporti yo'nalishida ilmiy izlanish olib borayotgan professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va doktorantlar faoliyati rejalashtiriladi, muvofiqlashtiriladi va monitoring qilinadi.

Transport va metropoliten sohalariga oid respublika hamda xalqaro ilmiy-innovatsion konferensiyalar va ilmiy-amaliy anjumanlarda metropoliten mutaxassislarining ishtiroki ta'minlanadi, ilmiy izlanish olib borayotgan metropoliten mutaxassislarining universitet ilmiy jurnallarida maqola chop etishlariga ko'maklashiladi.

Yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega talabalar "Toshkent metropoliteni" DUK kadrlar rezerviga tavsiya etiladi, ijtimoiy himoya yagona reyestrda ro'yxatda turuvchi metropoliten yo'nalishidagi talabalar qo'llab-quvvatlanadi hamda Metropolitan kadrlarini tayyorlash ilmiy-innovatsion markazi tinglovchilari uchun universitetning <https://lib.tstu.uz/> elektron kutubxonasidan

foydalanish va zarur elektron resurslarga erkin kirish imkoniyati yaratiladi.

3. Xulosa

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish omili hisoblanadi. Universitet va metropoliten o'rtasidagi hamkorlik:

- amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim modelini shakllantiradi;
- ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga tezkor joriy etish imkonini beradi;
- soha uchun yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi;
- innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mazkur hamkorlik modeli ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi bosqichi sifatida transport sohasi rivojiga muhim hissa qo'shadi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-iyuldagi "Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash to'g'risida"gi PQ-313-son qarori.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori.

[3] O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son qonuni.

[4] Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2022.

[5] Transport sohasida innovatsion rivojlanish strategiyasi. – Toshkent, 2023.

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Norkulov S.T. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi "Toshkent Metropoliteni" DUK boshlig'ining ilmiy-innovatsion rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari — Toshkent davlat transport universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor v.b.



M. Miralimov, I. Mengliev, E. Muminov <i>Detection of defects and damages in road bridges and assessment of their load-bearing capacity for the passage of excessive loads</i>	161
M. Ravshanov, A. Tuychiev <i>Development of a classification of passenger services within the transport-service complex system</i>	169
U. Safarov, O. Ablyalimov, N. Julenev <i>Mathematical modeling and analysis of the traction-economic characteristics of the transition zone during locomotive speed changes on Uzbekistan railways</i>	174
D. Airapetov, R. Khakimov, O. Vafaev, Sh. Alimukhamedov <i>Experimental assessment of multi-stage vacuum filtration in the restoration of performance properties of spent engine coolants</i>	179
D. Butunov, Ch. Jonuzokov <i>Issues of optimizing train processing time standards</i>	185
I. Toshtemirov, O. Khodjaev, A. Yusupov <i>A comprehensive assessment of workers' physiological workload during the technological process of closing the bottom hatches of open-top rail wagons</i>	191
D. Bekmirzaev, A. Ismoilov <i>Integration of certificates from the national earthquake preparedness education platform into incentive mechanisms in Uzbekistan (a scientific approach based on the experience of Turkey)</i>	196
S. Norkulov <i>A new stage in the integration of education, science, and industry</i>	200
S. Norkulov <i>The geographical location of Uzbekistan and its economic significance</i>	202